ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(7)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 312 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari ..... 10
**Abdullajonova Bashorat Olim qizi**

Xavfsizlik tuyg'usinining psixologik mazmuni ..... 13
**Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida ..... 17
**Boybo'riyeva Saodat O'ralovna**

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ..... 21
**Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi**

Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari ..... 26
**Madumarov Jahongir Urinbayevich**

O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli ..... 29
**Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li**

Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ..... 33
**Teshaboyev Akramjon Yuldashevich**

O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir ..... 39
**Turdibekova Risolat Shermatovna**

6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ..... 42
**Tursunova Durdona**

Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari ..... 46
**Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich**

Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi ..... 49
**Yusupova Muxabbat Anatolevna**

Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов ..... 53
**Рысова Галия Байбулатовна**

Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts ..... 57
**Asadova Zebiniso Makhmudovna**

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari ..... 62
**Beketov Nurseit Alijan o'g'li**

Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish ..... 67
**Rustamova Zuhro Sanjar qizi**

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari ..... 71
**To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi**

Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari ..... 76
**Tursunova Dildora Ziyadullayevna**

Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentliligini rivojlantirish metodikasi ..... 79
**Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li**

Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish ..... 83
**M. Badalova**

Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы ....... 86
Родина Ирина Витальевна

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar ....... 91
Feruza Tohirova

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ....... 99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ....... 104
Nafisa Tuxtasinova

Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ....... 108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova

Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi ....... 113
Xudayberdiev Inom Xasanovich

Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati ....... 117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi ....... 122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna

Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi ....... 127
Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortojiyevich

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati ....... 133
Aminov Botir Umidovich

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish ....... 138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna

Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati ....... 142
Egamqulova Iroda Safar qizi

Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish ....... 148
Gimayeva Liliya Maskurovna

Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi ... 153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich

Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi.. 157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li

Rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni ....... 163
Salisheva Zilola Ismoilovna

Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.... 169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi

Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari ....... 174
Vasilyeva Elmira Raisovna

The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development....... 178
Yusupova Liliya Fanovna

Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi....... 183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li

Yaqin masofalarga yugurishda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari ........ 190
**Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich**

Darslik yozish mas’uliyati ........ 194
**Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi**

Mobil ta’lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish ........ 198
**Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o‘g‘li**

Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o‘rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi ........ 202
**Omonov Shohrux Orzimurot o‘g‘li**

Abdulla Avloniyning o‘zbek tamaddunidagi o‘rni xususida ba’zi mulohazalar ........ 206
**Tasbolatova Yeliza Yesey qizi**

The Relationship Between Students’ Learning Motivation and Academic Procrastination ........ 209
**Odilbekov Mansurbek Maxmudjon ugli**

“Beg‘uborlik ovozi” va o‘zini namoyon etish makoni ........ 215
**Q. M. Ibadullayev**

Формирование лингвокультурологи-ческой компетенции иноязычных студентов в цифровой образовательной среде ........ 219
**Наталья Николаевна Розикова**

Criteria, Indicators, and Levels for Developing Pre-Service EFL Teachers’ Auditive Competence ........ 223
**Alibekova Mahzuna Alisher kizi**

Summary of the Cell Elements in Dental Science ........ 229
**Ruziyeva Kamola Akhtamovna**

A Customised Method for Treating Generalised Periodontitis and Predicting Cardiovascular Problems Using Salivary Proteomic Profiling ........ 234
**Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababyan I. R.**

Avtomobilsozlik yo‘nalishi talabalarida kommunikativ kompetensiyani raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish ........ 239
**G. Sh. Doniyorova**

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish xususiyatlari ........ 242
**Dusanov Shuxrat Abdiraakovich**

Ijro etuvchi funksiyalar buzilishi va diqqat-yetishmasligi giperaktivlik buzilishi (DEHB): Barkli yondashuvi ... 246
**Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna**

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari .. 248
**Abdullayev Sherzodbek**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Hard Skills” va “Soft Skills” integratsiyasini ta’minlashning pedagogik-psixologik tizimi ........ 251
**Xolmatova Dilshoda Sherali qizi**

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari ........ 258
**Djumabayeva Janar Muratbayevna**

O‘zini o‘zi tashkil etishni rivojlantirish pedagogik texnologiyasi ........ 262
**Jo‘rayeva Gulxayo Sabirovna**

Raqamli va kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari: zamonaviy pedagogik modellar qiyosiy tahlili misolida ........ 265
**Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi**

Qoraqalpoq prozasining psixologik paradigmasi ........ 269
**Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna**

The Relationship Between the Characteristics of Systematic, Logical and Creative Thinking in Students (Based on the Example of $7^{th}$–$9^{th}$ Grade Pupils) ........ 273
**Samarova Shoxista Rabidjanovna**

Oliy ta’lim tizimida tyutorlar kasbiy salohiyatini oshirishning innovatsion metodik modeli ........ 282
**Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich**

Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik tayyorgarligini oshirish metodikasi ..... 286
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li

Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili ..... 293
Xalimova S. A.

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarda matematik va mantiq tafakkurni shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari ..... 299
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi

Emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan mobil ilovalar va platformalardan foydalanish usullari ... 304
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi

Kreativ fikrlashni rivojlantirishning ta'lim samaradorligiga ta'siri ..... 308
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Erkinov Ozodbek Faxriddin o'g'li

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ma'naviyatini rivojlantirish omillari ... 312
Mirzanov Sardor Umarqul o'g'li

# BO'LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK O'QITUVCHILARINING MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mirzanov Sardor Umarqul o'g'li
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari yoritilgan. Unda bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlarga hurmat, kasbiy burch va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, interfaol metodlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omillari sifatida asoslangan. Maqolada pedagogik ta'lim jarayonini ma'naviy mazmun bilan boyitish, shaxsiy namuna va kasbiy kompetensiyalar uyg'unligini ta'minlash orqali bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy yetukligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, kasbiy kompetensiya, pedagogik omillar.

**Abstract:** This article examines the pedagogical and psychological factors contributing to the development of spirituality among future teachers of initial pre-conscription training. It analyzes the formation of high spiritual and moral qualities, patriotism, civic responsibility, respect for national values, a sense of professional duty, and dedication among future military education teachers. The article also substantiates that the effective use of spiritual and educational activities, interactive methods, national and universal human values, historical and cultural heritage, as well as military-patriotic education in the educational process constitutes an important factor in developing the spirituality of future teachers. The article provides scientific and practical recommendations for enhancing the spiritual maturity of future specialists by enriching the educational process with spiritual and moral content and ensuring the integration of personal example with professional competencies.

**Key words:** Spirituality, spiritual and moral education, patriotism, military-patriotic education, national values, civic responsibility, professional competence, pedagogical factors.

**Аннотация:** В данной статье освещаются педагогико-психологические факторы развития духовности будущих преподавателей начальной допризывной подготовки. Проанализированы вопросы формирования у будущих преподавателей военного образования высоких духовно-нравственных качеств, патриотизма, гражданской ответственности, уважения к национальным ценностям, чувства профессионального долга и самоотверженности. Также обосновано, что эффективное использование в образовательном процессе духовно-просветительских мероприятий, интерактивных методов, национальных и общечеловеческих ценностей, историко-культурного наследия, а также военно-патриотического воспитания является важным фактором развития духовности будущих преподавателей. В статье представлены научно-практические рекомендации по повышению духовной зрелости будущих специалистов посредством обогащения образовательного процесса духовно-нравственным содержанием, обеспечения единства личного примера и профессиональных компетенций.

**Ключевые слова:** Духовность, духовно-нравственное воспитание, патриотизм, военно-патриотическое воспитание, национальные ценности, гражданская ответственность, профессиональная компетентность, педагогические факторы.

## KIRISH

O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarorida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida

yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda xushyorlik, ma’naviy mas’uliyat tuyg‘usining to‘g‘ri shakllanganligi, voqelikka qadriyatli munosabatni to‘g‘ri vujudga keltirishda tarbiyachi-pedagog, ustoz-murabbiyning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarining ma’naviyatini rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida dolzarbligi va muhimligi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlarini qondirishda, ta’lim tizimining barqaror pivojlanishini ta’minlashda muhim jarayon hisoblanadi. O‘zbekicton Respublikasi Vazirlap Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tapbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan Konsepsiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borishdir [3].

Ma’naviyat va ma’rifat mapkazi huzurida “Ma’naviyat targ‘ibotchisi” ta’lim muassasasi tashkil etildi. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshida “Madaniyat va ma’rifat” telekanali tashkil etilishi ham sohaning hozipgi axbopot asrida katta ahamiyatli deb qaraladi. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axbopot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tapbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoulap, ijtimoiy roliklar, ko‘rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilinib kelinmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi. Mapkaz huzurida “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta’sis etildi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlapi to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorida ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonun, meyoriy hujjatlar tahlili asosida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning hozirgi davrdagi ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- jamiyatda sog‘lom dunyorarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, barcha ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligi hamda uzluksizligini ta’minlash;
- g‘oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, axborot tarmoqlaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;
- global dunyodagi geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish;
- terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, o‘z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Oliy ta’limning asosiy vazifalari qatoriga Davlat ta’lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlap asosida o‘qitishning sifatini ta’minlash, oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda oliy ta’limning insonparvarligini ta’minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish kiradi. Oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa pedagogika yo‘nalishlarida yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlashda, talabalarning shaxsiy rivojlanganligi, ularda yuksak insoniy fazilatlar va kasbiy professionallik rivojlanganligi ularning mehnat bozorida raqobatbardoshliligini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlap talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. 2020-yil 19-may kuni “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [1] yangi tahrirda qabul qilindi. Undagi eng muhim o‘zgarishlar sifatida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi kiritilgan. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘quv pejasiga kiritilgan “Umumiy pedagogika”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq fanlarini o‘qitish metodikasi”, “Milliy g‘oya targ‘iboti va texnologiyalari” hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishi bo‘lajak pedagoglar va talabalarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarini tashkil etishga tayyorlashda katta imkoniyatlar mavjud.

Yuqoridagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir Qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasalariga oid meyoriy hujjatlar tahlili ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash nuqtai nazaridan muhimligini qayd etgan holda, maqolamizda "ma'naviyat", "ma'rifat" va bu ikki tushuncha bog'liqligidagi "ma'naviy-ma'pifiy faoliyat" tushunchalarini tahlil etamiz. Har qanday jamiyat, tuzum barqaror rivojlanishga intilibgina qolmasdan, o'zining tabiatiga, mohiyatiga mos shaxsni voyaga etkazishga ham muhim e'tibor beradi. Uning axloqiy, huquqiy, estetik meyorlari, ijtimoiy institutlarining faoliyati shu maqsadga bo'ysundiriladi.

Ma'naviy-ma'pifiy faoliyat O'zbekiston Pespublikasining hozirgi globallashuv davrida dunyodagi mavqeini belgilab beruvchi faoliyat hisoblanadi. Dunyodagi ko'plab pedagogik, cotsiologik tadqiqotlar inson ma'naviyati va ma'rifiy kamol topishida, ularda qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga avvalgiga nisbatan ko'proq ehtiyoj borligini, buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarda global iqtisodiy o'zgarishlar davrida "qadriyatlarni hurmat qilishga mo'ljallangan ta'lim", "aksiologik munosabatlarni rivojlantirish", "qadriyatga asoslangan boshqaruv" kabi tushunchalar pedagogik amaliyot va tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib, ijtimoy-gumanitar fanlar o'qitilishining ahamiyati oprtib bormoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv jarayonlari O'zbekiston fuqarolarining butun dunyoda ilm o'rganishi, mehnat faoliyatini ko'rsatish, sayohat qilish qamrovini oshirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining ta'lim oluvchilar ongiga qadriyatlar tizimini qay darajada singdira olganligi va ularning keyingi hayotini qay darajada rejalashtira olishi, bunda umumbashariy va milliy qadriyatlarga qay darajada e'tibor qaratish ko'nikmasi shakllanganligini ta'lim tizimining natijasi sifatida qarash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston jahonning eng ma'rifatli mamlakatlari orasida o'z o'rnini topib, bapqaror rivojlanish uchun mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri tushunadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalashi ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilib bormoqda. Bu o'rinda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilariga qo'yiladigan zamonaviy va global talablar ortib bormoqda.

Sotsiologiyada "avlodlar almashinuvi" nazariyasi mavjud bo'lib, hozirgi zamonda dunyodagi iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishlar avlodlar ongiga turlicha ta'sir qilib keladi. Raqamlashtirish, inson hayotidagi hayotiy ustuvorliklarning o'zgarib borishi, hayotiy qadriyatlarning yo'qolib borishi "avlodlar almashinuvi" nazariyasida o'z aksini topadi. Bunda yosh avlod pedagog kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim tizimi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlari avlodlar almashinuvi jarayonidagi barcha o'zgarishlarni ilmiy tadqiq qilishi va shuning asosida yangi ta'lim-tarbiya texnologiyalarni ta'lim mazmuniga singdirib borish talab etiladi. Yosh avlodning rivojlanishiga, ayniqsa ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining barcha jihatlarini o'zida aks etgan pedagogik konsepsiyalardan xabardor, amaliyotda qo'llay oladigan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Ma'lumki, ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tacavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'no" so'zi yotadi [6].

Ma'naviyat atamasi etimologiyasiga e'tibor qaratilsa, g'arb ilmiy tadqiqotlarida lotin tilidagi "Spiritus" so'zidan hosil bo'lgan tarzda ishlatiladi. "Spiritus" co'zi "havo, nafas", shuningdek "nafas olish, jon, ruh, g'ayrat, jasorat, sezgi" ma'nolarini anglatadi. "Spirituality" so'zi "ruhiy" yoki "ichki hayot" tarzida ifoda etiladi [7].

Taniqli faylasuf A.Jalolov ma'naviyat atamasini "… insonning zot belgisi, uning faoliyatini tapkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli" [8] -deb ta'riflagan bo'lsa, S.O.Otamurodov "…har bir insonning ichki ruhiyati, aql-zakovati, uni o'zini-o'zi anglash, yaxshiliklarga, ezgu-niyatlarga to'la qalbi, oldinga qarab yangi marralar sari ongli ravishda faollik ko'rsata bilish va intilish salohiyatidir" [9]-deb ta'riflagan.

B.Ziyomuhammedov ham avvalgi ta'rifni yanada to'ldirib, ma'naviyat "… bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy hayotida sinalib, ko'nikma, malaka darajasiga o'tgan va qalbiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir" [10]-deb ta'riflagan. Ma'naviyat atamasiga berilgan ta'riflardan xulosa qilish mumkinki, ma'naviyat keng qamrovli va ko'p qirrali hodisa bo'lib, ijobiy-ijtimoiy sifatlar majmuini bildiradi. Ma'naviyat o'z navbatida 4 ta tarkibiy qismlarga bo'linadi: madaniyat, madaniy mepos, mafkura va qadriyat [11]. Mazkur tarkibiy qismlarni egallash orqali shaxs millat va jamiyat vakili sifatida ijobiy ijtimoiy sifatlarni egallab boradi.

Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari shakllangan insonning dunyoqarashi o'zgarib, uning faoliyat mazmuni xalqning ma'naviy kamolotini yuksaltirish, milliy ma'naviyatni ravnaq toptirish, xalq ma'rifatini rivojlantirish hamda jahon xalqlari tafakkuri mahsulidan bahramand bo'lish, mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada sog'lomlashtirish kabi vazifalarni o'zining asosiy faoliyat mazmuni deb biladi [12].

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda o'qituvchi shaxsining pedagogik-psixologik xususiyatlarini ko'rib chiqish o'rinli bo'ladi. Bu masala

xususida Abu Nasr Forobiy "O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur", "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga epishadi" [13] - deya ta'kidlaydi.

Mamlakatimiz yoshlarining ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi va amaliyotga tadbiq etildi. Tadqiqotchi D.Z.Ernazarov mazkur tashabbuslarga taklif sifatida yoshlarning tolerant dunyoqarashini shakllantirish masalasini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi va fikrini quyidagicha asoslaydi: "Agar inson atrofidagi insonlar, voqea-hodisalarga, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa yangilik hamda o'zgarishlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lmas ekan, u barcha islohotlarni to'g'ri qabul qila olmaydi va ularga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabatda bo'lishiga olib keladi" [14].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarida tolerant dunyoqarashni shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda dunyodagi keskin jarayonlarga munosib munosabatda bo'lishlilik uchun katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda talabalar mazkur cohaga bevocita mas'ul sifatida faoliyat ko'rsatadigan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyati, markazning funksiyalari, tuzilishini bilishi, o'zining kelgusi faoliyatida ma'lumotlarning ilk manbalaridan foydalanishda markaz internet sahifalari va markazga tegishli nashrlardan foydalanishi zarur bo'ladi.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati maktab bilan chegaralanmaydi, balki barcha davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkoplikni nazarda tutadi. Bu holda talabalarda tashkilotchilik, rasmiy muloqot qilish, huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida ish yuritishi, rasmiy etiket qoidalarini o'zlashtirganligini talab etadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги ПҚ-1059-сон"Узлуксиз маънавий тарбия Концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сон "Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlapi to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. М ҳарфи. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б. 334.
7. Boyer M. Spirituality of Mission: Reflections for Holy Week and Easter. Cistercian Publications, 2017. – P.14.
8. Жалолов А. Мустақиллик масъулияти. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 17.
9. Отамуродов С.О. ва бошқ. Маънавият ва маърифат асослари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 8.
10. Зиёмуҳамедов Б. Педагогик маҳорат асослари. – Т.: TIB-KITOB, 2009. – Б. 12.
11. Абдуллаев М., Умаров Э., Очилдиев А., Йўлдошев А., Абдуллаев А. Маданиятшунослик асослари. –Т.: Турон-Иқбол, 2006. – Б. 24.
12. Сирлиев Б.Н., Бекназаров А., Арзиқулов А. Психология. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 54.
13. Акрамова Ф.А., Лутфуллаева Н.Х., Хайдарова Х.Р. "Педагогик психология" фани (маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2005. – Б. 10.
14. Эрназаров Д.З. Маънавий-маърифий ишлар тизимида ёшларнинг толерант дунёқарашини шакллантириш масаласи. "Талаба-ёшларда толерантлик дунёқарашини шакллантиришнинг инновацион усуллари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. –Т.: ТДИУ, 2019. – Б. 35.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(7)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.